

BUXORO VILOYATI TASHLAMA KO'LLARINING GIDROLOGIK TASNIFI

**Toshbekov Nurbek Ahmadovich
Negmurodova Dilobar Davlatovna
Ne'matov Azizbek Begzod O'gli**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

***Annotatsiya:** Suv resurslaridan tartibsiz foydalanish natijasida sug'orma suvlarning miqdor jihatdan kamayishi va sifati yomonlashib bormoqda. Tabiiy va antropogen omillarning ta'siri natijasida tuproq xossalari, suv resurslari kamayishi va ekologik holatning o'zgarishi kuzatilmoqda.*

Buxoro viloyatida qishloq xo'jalik ekilarini sug'orishda kollektor-zovur suvlaridan foydalanishda uning kimyoviy tarkibini aniqlash zarur. Ushbu maqolada viloyatdagi tashlama ko'llar va ularning gidrologik ko'rsatkichlari haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** Kollektor-zovur, qishloq xo'jaligi, suv resurslari, sun'iy sug'orish sistemasi, tashlama ko'llar, tabiiy drenaj, suvning minerallashganligi, sug'oriladigan yerlar, kollektor, zovur.*

ГИДРОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОЗЕР ТАШЛАМИНСКОГО ХРЕБТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

**Тошбеков Нурбек Ахмадович
Негмуродова Дилобар Давлат Кизи
Ne'matov Azizbek Begzod O'gli**

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

***Аннотация:** В результате неравномерного использования водных ресурсов снижается количество и качество оросительной воды. В результате воздействия природных и антропогенных факторов ухудшаются свойства почв, водных ресурсов и изменяется экологическая обстановка.*

При использовании коллекторно-дренажных вод для орошения сельскохозяйственных культур в Бухарской области необходимо определять их химический состав. В данной статье рассматриваются сбросные озера региона и их гидрологические показатели.

***Ключевые слова:** Коллектор, сельское хозяйство, водные ресурсы, система искусственного орошения, хвостохранилища, естественный дренаж, минерализация воды, орошаемые земли, коллектор, канава.*

Kirish. Hozirgi kunda dunyo miqyosida suv resurslaridan ekstensiv foydalanish natijasida ularning miqdor jihatdan kamayishi va sifat bo'yicha yomonlashuvi qator mummolarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekistonda ham XX asrning 60 yillaridan boshlab yerlarni keng miqyosda o'zlashtirishlari natijasida daryolardan suv olish yildan-yilga ortib bordi. Buxoro viloyati respublika miqyosida yakkayu-yagona sunhiy sug'orish sistemasiga asoslangan viloyat hisoblanadi.

Shu sababli Buxoro viloyatida sug'orishga olinadigan va ekin maydonlarida hosil bo'ladigan suvlar dinamikasini o'rganish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri sanaladi. Ayniqsa, bu holat Buxoro viloyatining qishloq xo'jaligida kuchliroq sezildi.

Asosiy qism. Sug'oriladigan maydonlarda sho'r yuvish natijasida sizot suvlar hosil bo'ladi. sizot suvlar kollektor-zovurlar orqali katta sunhiy ko'llarga quyiladi. Bu suvlarning yig'ilishidan quyidagi tashlama ko'llar hosil bo'ladi. Sug'oriladigan ekin maydonlarning kengayishi va ulardan yildan-yilga ortib borishi natijasida ko'plab yangi tashlama ko'llar paydo bo'ldi. Viloyatdagi irrigatsiya-tashlama ko'llarning eng yiriklari Dengizko'l, Qoraqir, Porsonko'l, Oyoqog'itma, Tuzkon, Xadicha ko'llaridir. Ushbu ko'llardan tashqari hududda nisbatan kichik o'lchamlardagi ko'llar ham keng tarqalgan. Ilgaridan mavjud bo'lgan Dengizko'l, SHo'rko'l kabi ko'llarning maydoni esa yil sayin kattalashib bormoqda. Viloyatdagi jami zovur suvlari 7 ta ko'lga yig'iladi. Bu ko'llarning umumiy maydoni 100110 ming gektarni, suv hajmi 5.6 mlrd m³ tashkil qiladi.


Dengizko'l. Buxoro viloyatining Olot tumanida joylashgan tashlama ko'l hisoblanadi. Koordinatalari. 39°06' shimoliy kenglik va 64°14' g'arbiy uzunlikda joylashgan. Dengiz sathidan balandligi 232 m ni tashkil qiladi. Ko'l to'g'risidagi mahlumotlar o'tgan asr manbalarida keltrilgan. O'rta asrlarda "Borgini farox" yahni Katta ko'l" deb ham yuritilgan. 1980-yillarning oxirida Dengizko'lning uzunligi 43.3 km, eng keng joyi – 9 km, eng chuqur joyi 22 m, suv yuzasi maydoni 267 km², suv hajmi 2.7 km², o'rtacha kengligi 6.17 km ni tashkil qiladi.



1-rasm. Dengizko'l tashlama ko'lining tabiiy xaritasi

Dengizko'l suv havzasi Buxoro shahridan 75 km janubiy-sharqda uncha uzoq bo'lmagan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh. Suvi kuchli sho'rlangan. Ko'l viloyatning janubiy chekkasidagi (Zarafshon daryosining quyi oqimida) tektonik botiqda, dengiz sathiga nisbatan 181.5 m balandda joylashgan. Dengizko'lning maydoni va chuqurligi tez-tez o'zgarib turadi, umumiy maydoni 45 ming gektar, suv sig'imi 0.08-1.5 mlrd/m³. Eng chuqur joyi 30 m, o'rtacha chuqurligi 10 m ni tashkil qiladi. Dengizko'lga uzunligi 126 km, eng katta suv o'tkazish qobiliyati 30 m³/s bo'lgan Dengizko'l kollektoridan keladigan tashlama suvlar kelib quyiladi va shuni hisobiga suv sathi o'zgarib turadi.

Oyoqog'itma tashlama ko'li. Oyoqog'itma ko'li Quljuqtog'ning etagi bilan Zarafshon daryosi vodiysi orasidagi Oyoqog'itma botig'ida, Buxoro viloyatining shimoli, SHofirkon va G'ijduvon tumanlari hududlarida joylashgan bo'lib, 1985-1986 yillarda Oyoqog'itma tashlanmasi orqali keladigan oqova suvlar, hamda bahor va qish fasllaridagi yog'ingarchiliklar hisobidan hosil bo'lgan tashlama ko'l hisoblanadi. Koordinatalari 40°36' shimoliy kenglik, 64°28' g'arbiy uzunlikda, dengiz sathidan balandligi 231 m ni tashkil qiladi.



2-rasm. Oyoqog'itma atroflarida havo haroratining o'rtacha oylik va yillik qiymatlari

Mazkur grafikdan ko'rinib turibdiki, biz o'rganilayotgan Oyoqog'itma va uning atroflarida yil davomida eng past harorat yanvar oyida, eng yuqori harorat esa iyul' oylariga to'g'ri keladi.


Oyoqog'itma ko'liga Buxoro va Navoiy viloyatlari ekin maydonlaridan chiqadigan sizot va oqova suvlardan hosil bo'lgan Sho'rko'l va Oyoqog'itma kollektori quyiladi. Suv yuzasi maydoni yoz oylarida 60 km² gacha ortadi, shu vaqtda chuqurlik 10 m dan ortadi, oyoqog'itma ko'lining suvi sho'r, kuzda suv yuzasi maydoni kichrayadi. Oyoqog'itma ko'li sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan bo'lib, Og'itma jarligini egallaydi. Ko'lining uzunligi 15-20 km, eng keng qismi 8 km, o'rtacha kengligi 5 km ni tashkil etadi. Ko'lining maydoni 14.5 ming gektar ni, suv sig'imi 7300 mln m³, hozirgi kunda 310 mln m³ ni, suv yuzasining aylanasi esa 75 km ni tashkil etadi. SHu davrda ko'l sathi ancha kengayadi, qirg'oqlarni suv bosadi. Hozirgi kunda 310 mln m³. Maydoni 870 km². Eng chuqur joyi 40 m. Eni 30 km. Maydoni 14,5 ming gektar.

Qora-qir ko'li. 1960-1970 yillarda SHimoliy kollektor suvining Buxoro viloyatining shimoliy g'arbidagi cho'l zonasiga chiqarib yuborilishi natijasida Qora-qir tashlama ko'li paydo bo'lgan. Qora-qir tashlama ko'li koordinatalari 40° 24' shimoliy kenglik va 63° 14' g'arbiy uzunlikda, dengiz sathidan balandligi 181 m ni tashkil qiladi. Qora-qir ko'li Buxoro viloyati Peshko' tumanida joylashgan. Qora-qir tabiiy ko'li (ko'llar sistemasi) Buxoro shahridan 140 km uzoqlikda joylashgan. Qora-qir ko'li tabiiy suvligi sayoz suvliklardan iborat. Asosan SHimoliy tumanlararo kollektor-zovur suvlaridan to'yinadi. Mahlumki, Shimoliy tumanlararo kollektor-zovuri Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon, Romitan, Peshku tumanlaridagi ekin maydonlarida hosil buladigan qaytarma suvlarni to'plab, shu tumanlar sarhadlaridan oqib o'tadi. Uning umumiy maydoni 22.5 ming gektarni tashkil qiladi. Shimoliy tumanlararo kollektor viloyatning G'ijduvon, Shofirkon, Romitan, Peshku tumanlaridagi ekin maydonlarda hosil bo'ladigan qaytarma suvlarni to'plab, Qora-qir ko'lini to'yintiradi.



3-rasm. Qora-qir ko'lining geografik joylashuvi

Ko'ldan suv olinmaydi. Suvning asosiy qismi bug'lanish va filtratsiya hisobiga kamayadi. Ko'lga suv shimoliy kollektor orqali $30-40 \text{ m}^3 / \text{sek}$ kiradi, lekin chiqib ketadigan joyi yo'q qish va bahor oylarida kollektor suvining ko'payishi natijasida ko'lining maydoni, mayda ko'lmaklarning hosil bo'lish hisobiga 26,5–27,2 ming gektarga yetadi. Undan tashqari ko'lga kiradigan suv $5-10 \text{ m}^3 / \text{sek}$ gacha kamayishi hisobiga maydon ancha qisqaradi. 10-12 ming gektarga kamayadi. Ko'l sayoz maksimal chuqurligi (Katta Qora-qir) 5-7 metr, o'rtacha chuqurligi 2.0-2.5 metr, minimal 0.7-1.8 metr. Qora-qir tashlama ko'lida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.



4-rasm. Qora-qir ko'lida suv va havo haroratini o'rtacha ko'rsatkichi

Keyingi yillarda Qora-qir ko'lining suvi qish oylarida muzlashi kuzatilmoqda. 2015 yil dekabr oyining 17 kunidan boshlab qirg'oqlari muzlay boshladi. Ammo, pelagial zona chuqurligi 5-7 metr bo'lgan joylarda to'lqin kattaligi sababli muzlash kuzatilmaydi. Qora-qir ko'li suvining kimyoviy tarkibini aniqlashda mavsimiy namunalar yig'ildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich. The Formation of Water Collector-Resources Drainage Network of Zarafshan Oasis and the Questions of Recycling. TEST Engineering & Management, 27380 – 27385.
2. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. akademik. An International multidisciplinary Research Journal 5, 30.
3. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich. Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the exam'le of the Bukhara oasis). Bulletin of the Karakal'ak branch of the Academy of Sciences of the Republic.
4. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Region. Nature and Science. MARSLAND 'RESS 18 (4), 2020.99-101
5. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul A'zamovna. Efficient use of water resources of the Amu-Bukhara canal. akademik. An International multidisciplinary Research Journal 30, 2020.15-18
6. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich. Efficient Use Of Collector-Drainage Networks (On The Exam'le Of Bukhara Region). The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering 2 (2), 10-15
7. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Region. Nature and Science. 4, 18.